ONOMASTIK TARKIBLI TURG‘UN BIRIKMALAR STILISTIKASI

Komila Mamadiyorova
Samarkand davlat chet tillar instituti
Ikkinchi chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi onomastik tarkibli turg‘un birikmalarning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, “almisoqdan qolgan” hamda “yangi Amerika ochish shart emas” kabi iboralarning kelib chiqishi, mifologik va tarixiy asoslari hamda ularning metaforik ma’nolari yoritilgan. Tadqiqotda ushbu birliklarning publisistik va og‘zaki nutqda obrazlilik, ta’sirchanlik va ixchamlikni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, onomastik birliklarning tilning estetik va madaniy funksiyalarini namoyon etuvchi muhim vosita ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: onomastik birliklar, turg‘un birikmalar, mifonim, “Al-miysoq”, “Yavmal-Miysoq”, metaforik ma’no, stilistik vosita, publisistik uslub, “yangi Amerika ochish”, assotsiativ ma’no, til va madaniyat, obrazlilik, ta’sirchanlik.

Аннотация: В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности фразеологических единиц с ономастическими компонентами в узбекском языке. В частности, рассматриваются происхождение, мифологические и исторические основы, а также метафорические значения выражений «almisoqdan qolgan» и «не нужно открывать новую Америку». В исследовании показана роль данных выражений в создании образности, выразительности и лаконичности в публицистической и разговорной речи. Кроме того, обосновывается, что ономастические единицы являются важным средством отражения эстетической и культурной функций языка.

Ключевые слова: ономастические единицы, фразеологические выражения, мифоним, «Аль-Мисак», «Яум аль-Мисак», метафорическое значение, стилистическое средство, публицистический стиль, «открывать новую Америку», ассоциативное значение, язык и культура, образность, выразительность.

Annotation: This article analyzes the semantic and stylistic features of phraseological expressions containing onomastic elements in the Uzbek language. In particular, the origins, mythological and historical foundations, as well as the metaphorical meanings of expressions such as “almisoqdan qolgan” and “there is no need to discover a new America” are examined. The study highlights the role of these expressions in creating imagery, expressiveness, and conciseness in publicistic and spoken discourse. Furthermore, the article substantiates that onomastic units serve as important means of reflecting the aesthetic and cultural functions of language.

Keywords: onomastic units, phraseological expressions, mythonym, “Al-Mithaq”, “Yawm al-Mithaq”, metaphorical meaning, stylistic device, publicistic style, “discovering a new America”, associative meaning, language and culture, imagery, expressiveness.

Turg‘un birikmalar (frazeologik birliklar, iboralar, maqollar, matallar va boshqalar) – bu tilda muayyan shakllangan yoki o‘zlashgan, ko‘chma ma'noga ega bo‘lgan, tayyor holda nutqqa olib kiriladigan va qo‘llaniladigan til birliklaridir. Ularning tarkibida onimlar qatnashsa, ular onomastik tarkibli turg‘un birikmalar deb ataladi. Bunday birikmalar tilimizning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, nutqqa rang-baranglik, obrazlilik va lakoniklik bag‘ishlaydi. Bizningcha, ularni “poetonim turg‘un birikmalar” tarzida tavsiflash mumkin. Chunki onomastik

tarkibli turg‘un birikmalar, ko‘pincha, muayyan obrazni yaratadi va o‘quvchi yoki tinglovchida kuchli emosional va tasavvuriy ta'sir uyg‘otadi. Ular, oddiy so‘zlardan ko‘ra, muayyan vaziyat yoki holatni yanada yorqinroq ifodalaydi. Ixcham va lo‘nda ibora murakkab fikrni, chuqur ma'noni ifodalash imkonini beradi. Bu esa nutqni tejamkor va ta'sirchan qiladi.

Onomastik tarkibli birikmalar, ko‘pincha, muayyan madaniyat, tarix, urf-odatlar va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularni qo‘llash, nutqqa milliy va madaniy bo‘yoqdorlik bag‘ishlaydi. Masalan, “Axmoqqa Quva bir tosh, onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq, kabi turg‘un birliklarda mahalliy joy nomlari eslatib o‘tilgan bo‘lsa, Daqqiyunusdan qolgan (aslida Daqyonusdan qolgan), Xizir nazar qilgan iboralarida mifologik etnografiyaga oid shaxslarning nomlari madaniy kod vazifasini o‘tagan. Shu tariqa, atoqli otlar tizimidagi madaniy ma'lumotlarni saqlashning lingvistik asoslari va ma'lum bir til madaniyatining qadriyatlari ko‘lamini aniqlaydigan nomlarga e'tibor qaratiladi” [1;150]

Axmoqqa Quva bir tosh yoki axmoqqa To‘ytepa bir tosh (yoki axmoqqa To‘ytepa nima yo‘l) matali orqali aqlsiz odamning ishi samarasizligiga ishora qilinadi.

Tosh II mapixiy. Sakkiz chaqirimga yaqin (taxminan 6 kilometr) uzunlik o‘lchov birligi. (O‘TIL, 4-jild, 160-b.)

Orif Tolib ushbu matalni shunday izohlaydi: “Bu erda gap masofa haqida. Quva yoki To‘ytepa uzoq bo‘lsa-da, ahmoq odam ovora bo‘lib borib kelaveradi. Ishini bir borishda hal qilmaydi. Kallaning ishlamasligi – oyoqqa jabr”[2;45].

Shularni o‘ylab kayfiyatim yana-da yomonlashdi, o‘zimni chalg‘itay deb uygacha bo‘lgan masofani xayolan chamalayman: rostdan besh-olti chaqirim chiqar-ov. Boraman-da endi piyoda – “11”-tramvayda, “Ahmoqqa To‘ytepa nima?” degandek “peshkom”, sekin, oshiqmay. (Bizda – vodiyda bu maqolni boshqacharoq aytishadi – “Tentakka – Quva bir tosh” deb. Quva Farg‘onaning eng chekka, Andijon viloyatiga tutash tumani. Biz turgan Qo‘qon deparalaridan olis. Shunga shunaqa desalar kerak-da. (Adham Damin, Tentakka salom berdim (qissa)

Mazkur epizodda personaj nutqida qo‘llangan maqol uning o‘z holatiga nisbatan kinoyaviy mazmun ifodalab, tasviriy vositaga aylangan.

Demak, bu maqolda Quva, To‘ytepa kabi joy nomlari (toponimlar) aqlsiz odamning ishi samarasizligi va ovoragarchiligini bildirish uchun qo‘llaniladi. Ma'lum bir joyning o‘zi emas, balki unga borish-kelishning mashaqqati, aqlsizlik tufayli samarasiz qolishi ahamiyatli. Bu, “kallaning ishlamasligi – oyoqqa jabr” degan fikrni ifodalaydi.

“Ishonch” gazetasida “Nega shunday deymiz?” ruknida “Sulaymon o‘ldi, dnalar qutuldi” naqliga mifologik asos bo‘lgan afsona qisqacha bayon qilinadi. Afsonaga ko‘ra, Sulaymon payg‘ambar “Baytul muqaddas”ni qurdirganida devlarni majburan ishlatadi. Imorat bitgunga qadar bir joyda qimirlamay, hassasiga tayanib o‘tiradi. Devlar qo‘rqqanlaridan hech qayoqqa ketolmay, hatto u o‘tirgan joyida jon berganini ham sezmay ishlayverishadi. Hassa chirib, murda qulab tushgach esa, duch kelgan tarafga qochib ketishadi. Zero, shu asosda asrlar osha sayqallangan bu naql muloqot asnosi ma'joziy ma'noda keng qo‘llaniladi. O‘z mamlakati yoki oilasini qat'iyat bilan boshqargan davlat yoxud oila boshlig‘i olamdan o‘tgach, badfe'l kimsalar va noqobil farzandlar hunar ko‘rsata boshlasalar, odamlar afsus-nadomat-la bosh chayqab, “Sulaymon o‘lib, devlar qutulibdi-da”, deyishadi. [3;167]

– Gapimga quloq sol, Momojon, – dedi Veteran, unga yot, shikasta, g‘am to‘la ovozda. – Ahvolimni ko‘rib turibsan. Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi deganlaridek, sobiq xo‘jayin olamdan

o‘tgandan keyin uning kursisiga o‘tirgan manov devlarning qahri menga tushdi. (O.Yoqubov, “Adolat manzili”)

"Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi". Noyer ketdi. Nemis futboli afsonasi Manuel Noyer Germaniya terma jamoasidagi faoliyatini tugatganini e'lon qildi. 38 yoshli "Bavariya" vakili terma jamoadan ketganini ijtimoiy tarmoqlarga video joylagan holda ma'lum qildi.[3;213]

Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi naqli badiiy matnda personaj nutqida fikrni tasdiqlash maqsadida qo‘llangan bo‘lsa, publisistik matnda sarlavha darajasida keltirilib, futbol ishqibozlari e'tiborini qaratishga mo‘ljallangan poetik vositaga aylantirilgan.

Onomastik tarkibli turg‘un birikmalar, she'riyat, nasr, publisistika, so‘zlashuv nutqi kabi turli janrlarda turlicha uslubiy effektlar yaratishi mumkin. Masalan, she'riyatda ular obrazlilikni, publisistikada esa ta'sirchanlikni oshiradi.

Frazeologiyaning bir qismi bo‘lgan onomastik komponentli iboralar milliy-madaniy xususiyatlarni yaqqol ifodalovchi o‘ziga xos til birliklari hisoblanadi. Onomastik birliklar, xususan, antroponim, toponim, mifonimdar asrlar davomida o‘ziga xos stereotiplar, ramzlar va qarashlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. “Ular frazeologik birliklar tarkibida uchraganida esa milliy madaniy ijtimoiy-siyosiy va tarixiy mano assosiasialari frazeologik manoning ajralmas qismiga aylanadi. Bunda tarixda iz qoldirgan shaxslar, tarixiy voqealar, joy nomlari va xalqning ularga bo‘lgan munosabati muxim ahamiyat kasb etadi.Frazeologik birlikning umumiy konnotasiyasi tarkibidagi antroponim va toponimlarning ijobiy yoki salbiy mano bo‘yog‘iga egaligi bilan belgilanadi” [4;707].

Tadqiqotchi M.A.Radjabova tarkibida atoqli otlar ishtirok etgan o‘zbek frazeologik birliklarini quyidagi turlarga ajratadi:

1. O‘zbek realiyalari bilan bog‘liq FBlar: Hazil, hazilni tushunmagan – kal Fozil;

2. O‘zbek olimlari, podshohlar va mashhur kishilarning nomlari bilan bog‘liq FBlar: Asfandiyor xon bo‘ldi, og‘zi - burnim qon bo‘ldi;

3. O‘zbek adabiyoti namunalari va xalq og‘zaki ijodida uchraydigan personajlarning nomlari bilan bog‘liq FBlar: Oti bor – Alpomish;

4. O‘zbek xalqining urf-odatlari asosida shakllangan FBlar: Ramazon aytgan bilan to‘yamanmi, burungining odatini qo‘yamanmi;

5. O‘zbek rivoyatlari bilan bog‘liq FBlar: Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun;

6. Tarixiy shaxslar va tarixiy faktlar bilan bog‘liq FBlar: Bo‘ji keldi, Bo‘ji keldi, Chingiz bilan Jo‘ji keldi;

7. Chorvachilik va dehqonchilik kasbi bilan bog‘liq FBlar: Savr kirdi – ekinlarga davr kirdi;

8. Tarkibida astronimlar va kosmonimlar qatnashgan FBlar (shuningdek, sayyoralar, yulduzlar, Yer yuzi tomonlari, oy, hafta va burj nomlari): Hulkar uydan ko‘rinsa, uch oydan so‘ng.[5;15]

Shuningdek, dissertasiya muallifi Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi; Ko‘pda Xizr bor; Borida Hotam, yo‘g‘ida motam; Ming Makka ziyoratidan bir ko‘ngil imorati yaxshi; Ezop tili kabi maqol va iboralarni o‘zlashma frazeologik birliklar sifatida tavsiflaydi. Bizningcha, muallif bunda onomastik nomlarning o‘zlashganligini nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

Mana necha yildirki, Yangiyo‘l ko‘chasidagilar ushba almisoqdan qolgan simyog‘ochlarni almashtirishni so‘rab bormagan joyi, kirmagan teshigi qolmadi.(“Telegram” kanalidan)

– Biram irimchisizki, oyi. Qayerdagi almisoqdan qolgan gaplarni topib gapirasiz...(Q.Rahimboeva, “Nikoh ko‘ylagining vahimasi”)

– Himm, – dedi stulga yaxshilab o‘tirib olgan qariya do‘ppisini olib terlagan boshini dastro‘moli bilan artib...so‘ng Muhiddin o‘tirgan almisoqdan qolgan stulga, stol ustidagi bir uyum qog‘ozlarga nazar tashlarkan, – xonang g‘aribgina ekan. (N.Ismoilov, “Shiqir”)

Demak, keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, almisoqdan qolgan iborasi “Al-miysoq” mifonimi asosida shakllangan bo‘lib, metaforik ma'noda “qadimgi”, “eski”, “unutilgan” ma'nolarida nutqimizda faol qo‘llanadi.

Al-miysoq, aniqrog‘i “Yavmal-Miysoq” (Miysoq kuni)dir. Alloh taolo Odam Ato va Momo Havvoni yaratgach, kelgusida to qiyomat kunigacha er yuzida tug‘ilib- yashaydigan barcha odamlarning ruhlarini bir joyga yig‘ib, ularning halol-pok yashash haqidagi va'dalarini olgach, ularga jismoniy jon ato qilgan payt “Miysoq” deb ataladi. [6;111]

Almisoq [arabcha - ahd; qasam; shartnoma, bitim]: almisoqdan beri (yoki buyon) Juda qadim zamonlardan beri. (O‘TIL, 1-jild, 73-b.)

Tilning ijtimoiyligi shundaki, davr o‘tishi bilan muayyan voqea- hodisalar ta'sirida paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi til birliklari bilan boyib boradi. Keyingi paytda o‘zbek tilida so‘zlovchilar orasida Amerika ochish shart emas, yangi Amerika ochish shart emas ibopralari paydo bo‘ldiki, bu birikma tagma'nosida “Kolumbning Amerikani kashf etishi” hodisasi assosiasiyalanib, “mavjud narsani, mavvjud imkoniyatni qayta yaratish shart emas”, “bu ish o‘ylanganidan, kutilayotganidan osonroq hal bo‘ladi” kabi murakkab ma'nolarni qisqa qa ixcham tarzda ifodalash imkonini beradi.

Bu esa o‘z navbatida, o‘rta va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan e'tiborni kuchaytirib, bu sohada keskin burilish yasab, uning mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi salmog‘ini yanada orttirishni taqazo etadi. Bunga qanday qilib erishish mumkin? Buning uchun yangi Amerika ochish shart emas, faqatgina mavjud bo‘lgan moddiy va ma'naviy resurslarni maqsad sari yo‘naltirib, ulardan o‘ta oqilona foydalanish talab etiladi. [7;446]

Publisistik uslubda yozilgan mazkur maqolada ham yangi Amerika ochish shart emas iborasi “imkoniyatlarimiz etarli” degan ma'noni anglatib, ifoda ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Onomastik tarkibli turg‘un birikmalar, tilimizning boyligi va ifodaviy imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi muhim vositalardir. Ularning stilistik qo‘llanilishi, nutqni yanada obrazli, ta'sirchan, lakonik va milliy rang-barang qilishga xizmat qiladi. Bunday birikmalar, tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik va madaniy funksiyalarini ham yuqori darajada bajaradi. Ularni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, so‘z ustasining eng muhim belgilaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. J harfi. Ziyouz.com kutubxonasi, B. 62.
2. Xurramova Z. E., Maxmudova Ch. I. Maktab o‘quvchilariga toponimlarning to‘g‘ri yozilish tartiblarini o‘rgatish. Academic Research in Educational Sciences, 2020, Vol. 1, Issue 4, B. 607–613.
3. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent: Fan, 1965, B. 89.
4. Daniyarova Sh. X. Istiqlol davri romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi. Filol. fanl. dokt. diss. avtoreferati. Toshkent, 2012, B. 11.
5. Javbo‘riyev M. M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish. Filol. fanl. nomz. diss. Toshkent, 1991, B. 43.